

RAQAMLI JAMIYATDA IJTIMOYIY-GUMANITAR BILIMLARNING FALSAFIY TRANSFORMATSIYASI

Nurmatova Umida Jalolidinovna

Samarqand davlat pedagogika instituti dotsenti

umidanurmatova@samdpi.uz

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli jamiyat sharoitida ijtimoiy-gumanitar bilimlarning falsafiy transformatsiyasi klassik va tanqidiy falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalarning ijtimoiy bilish jarayoniga chuqur integratsiyalashuvi natijasida yuzaga kelayotgan gnoseologik, ontologik va aksiologik o'zgarishlar ochib beriladi.

Kalit so'zlar: raqamli jamiyat, ijtimoiy-gumanitar bilimlar, falsafiy transformatsiya, texnologik determinizm, gnoseologiya, aksiologiya, inson omili.

PHILOSOPHICAL TRANSFORMATION OF SOCIAL AND HUMANITARIAN KNOWLEDGE IN THE DIGITAL SOCIETY

Abstract. This article analyzes the philosophical transformation of social and humanitarian knowledge in the context of the digital society on the basis of classical and critical philosophical approaches. It reveals the epistemological, ontological, and axiological changes arising from the deep integration of digital technologies into the processes of social cognition.

Keywords: digital society, social and humanitarian knowledge, philosophical transformation, technological determinism, epistemology, axiology, human factor.

ФИЛОСОФСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНОГО ЗНАНИЯ В ЦИФРОВОМ ОБЩЕСТВЕ

Аннотация. В данной статье философская трансформация социально-гуманитарного знания в условиях цифрового общества анализируется на основе классического и критического философского подходов. Раскрываются gnoseологические, онтологические и аксиологические изменения, возникающие в результате глубокой интеграции цифровых технологий в процессы социального познания.

Ключевые слова: цифровое общество, социально-гуманитарные знания, философская трансформация, технологический детерминизм, gnoseология, аксиология, человеческий фактор.

Globalashuv va raqamli texnologiyalarning jadal rivoji zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim belgilaridan biriga aylandi. Prezident Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz shart va zarur"[1:24]. Shuningdek, axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari nafaqat iqtisodiy va siyosiy jarayonlarga, balki ilmiy bilishning mohiyati va shakllariga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar fanlar raqamli muhit ta'sirida o'zining an'anaviy metodologik va nazariy asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqazo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy-gumanitar bilimlarning falsafiy transformatsiyasini tahlil qilish zamonaviy falsafaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki, raqamli jamiyat sharoitida bilim nafaqat axborot sifatida, balki ijtimoiy ong, madaniyat va qadriyatlar tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Raqamli jamiyat tushunchasi, avvalo, axborotning asosiy resursga aylanishi bilan tavsiflanadi. Bunday jamiyatda ijtimoiy munosabatlar, kommunikatsiya va bilim ishlab chiqarish jarayonlari raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladi. Falsafiy jihatdan esa bu holat borliqning yangi - virtual va gibrid shakllarini yuzaga keltiradi. Natijada, "ijtimoiy reallik", "subyekt", "bilim" kabi fundamental tushunchalar qayta talqin qilinmoqda. Ijtimoiy-gumanitar bilimlar bu jarayonda jamiyatdagi raqamli o'zgarishlarni tushuntirib beruvchi, ularning ma'naviy va axloqiy oqibatlarini tahlil qiluvchi muhim intellektual vositaga aylanadi.

"Texnologiyalar o'ziga xos ijtimoiy kontekstda ta'sir ko'rsatadi va ko'pincha kutilmagan oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlar bir tomondan aloqani osonlashtirsa, ikkinchi tomondan shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi va psixologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin"[2]. Biroq bu holat "texnologik determinizm"ga moyillikni kuchaytiradi. Raqamli jamiyatni tahlil qilishda ko'pincha texnologik determinizmga asoslangan yondashuv ustunlik qiladi. Ushbu qarashga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti va bilimlarning rivoji asosan texnologik omillar bilan belgilanadi. Biroq bunday yondashuv ijtimoiy jarayonlarning murakkab va ko'p omilli tabiatini yetarli darajada ochib bera olmaydi.

Falsafiy yondashuvga ko'ra, texnologiyalar jamiyatni o'zgartiruvchi yagona omil emas, balki ijtimoiy, madaniy va tarixiy kontekst bilan uzviy bog'liq holda amal qiladi. Ijtimoiy-gumanitar bilimlarni faqat texnologik mantiqqa bo'ysundirish ularning insoniy va ma'naviy mohiyatini zaiflashtirishi mumkin.

Gnoseologik yondashuvga ko'ra, raqamli muhitda bilim ishlab chiqarish jarayoni sezilarli darajada o'zgardi. Katta ma'lumotlar, algoritmlar va sun'iy intellekt ijtimoiy jarayonlarni tahlil qilishda keng qo'llanilmoqda. Bu esa gnoseologik jihatdan bilimning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Biroq ijtimoiy-gumanitar bilimlar faqat statistik ma'lumotlar yig'indisi emas, balki talqin, tushunish va baholash jarayonidir. Shu bois, raqamli gnoseologiya klassik germeneytik va dialektik yondashuvlar bilan uyg'unlashmasa, intensiv bilimning yo'qolish xavfi yuzaga keladi.

Aksiologik jihatdan, raqamli jamiyatda qadriyatlar tizimi ham o'zgarib bormoqda. "Raqamli muhit virtual va real hayot o'rtasidagi chegaralarni yo'qqa chiqarayotgani, ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar ongiga bevosita ta'sir qilayotgani bois, ularning axloqiy qarashlari, qadriyat tanlovlari ham o'zgarishga yuz tutmoqda. Turli madaniyatlardan kirib kelayotgan g'oyalar esa milliy qadriyatlar bilan to'qnash kelib, yoshlarda ma'naviy izlanish va ziddiyatli holatlarni keltirib

chiqarmoqda”[3:52]. Demak, axborot erkinligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, raqamli tenglik, mas’uliyat va etik me’yorlar ijtimoiy-gumanitar bilimlarning markaziy muammolariga aylanmoqda. Falsafa bu jarayonda texnologik taraqqiyot bilan insonparvarlik qadriyatlari o’rtasidagi muvozanatni asoslab beruvchi vosita sifatida namoyon bo’ladi. “Raqamli jamiyatda axloq va qadriyatlar faqatgina insonlar o’rtasidagi munosabatlar va muloqot me’yorlarini aniqlash emas, balki raqamli hayotning barcha sohalarida ustuvor me’yorlar sifatida shakllanishi zarur. Axloqiy qadriyatlarning raqamli muhitdagi rivojlanishini ta’minlash, ularning barqarorligiga erishish hamda jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash uchun muhim ilmiy asoslarni yaratish zarur”[4]. Raqamli jamiyat ko’pincha qadriyatlardan xoli, texnik muhit sifatida talqin qilinadi. Ammo falsafiy tahlil bu qarashning shartli ekanini ko’rsatadi. Raqamli texnologiyalar orqali ishlab chiqilayotgan bilimlar muayyan qadriyatlar, manfaatlar va maqsadlar bilan bog’liq.

Ijtimoiy-gumanitar bilimlarning transformatsiyasi jarayonida insonparvarlik, mas’uliyat, axloqiy tanlov va erkinlik masalalari markaziy o’rinni egallashi lozim. Aks holda, raqamli muhit insonni bilim subyekti sifatida emas, balki passiv iste’molchiga aylantirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, raqamli jamiyat sharoitida ijtimoiy-gumanitar bilimlarning falsafiy transformatsiyasi murakkab va ziddiyatli jarayon bo’lib, u chuqur tanqidiy tahlilni talab etadi. Ushbu transformatsiya texnologik imkoniyatlar bilan bir qatorda, inson tafakkuri va ma’naviy qadriyatlarning ustuvorligini saqlab qolishni taqozo etadi. Falsafa esa mazkur jarayonda ijtimoiy-gumanitar bilimlarning nazariy va metodologik asoslarini mustahkamlovchi muhim ilmiy maydon sifatida namoyon bo’ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. -T.: “O‘zbekiston”, 2021. 24-b.
2. O‘ktamova D.O‘. Raqamli mamiyat: texnologiya, media va ijtimoiy transformatsiyalar. Journal of Education, Ethics and Value. Vol. 4, No.8, 2025.29-b. <https://jeev.innovascience.uz/index.php/jeev/article/view/1492>
3. O‘ktamova D.O‘. Raqamli jamiyatda yoshlarning axloqiy qiyofasini shakllantirish ijtimoiy tamoyillari. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi.52-b. in-academy.uz/index.php/yo
4. L.Muhamedjanova. Raqamli jamiyatda axloq va qadriyatlar. Imom Buxoriy saboqlari. <https://bukhari.uz/?p=44298&lang=oz>